

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA REFLEKSIV FAOLIYAT ASOSIDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Qaytarova Nargiza,

Nizomiy omidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti  
tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv faoliyat asosida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatga ongli yondashuvi, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari, o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va baholash kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, refleksiv faoliyatning pedagogik jarayondagi o'rni, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodik imkoniyatlar yoritilgan. Maqolada refleksiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faolligi, mustaqil fikrlashi va pedagogik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari pedagog kadrlar tayyorlash tizimida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishda muhim ilmiy-metodik manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** refleksiv faoliyat, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik refleksiya, kasbiy rivojlanish, mustaqil ta'lim, pedagogik kompetentlik, metodik yondashuv.

**Аннотация.** В данной статье анализируются педагогические и методологические основы формирования у будущих учителей начальной школы компетенций, необходимых для саморазвития посредством рефлексивной практики. Особое внимание в исследовании уделяется формированию у будущих учителей осознанного подхода к профессиональной деятельности, навыков самостоятельного обучения, а также компетентности в анализе и оценке собственной педагогической практики. Кроме того, в статье освещаются роль рефлексивной практики в педагогическом процессе, факторы, влияющие на развитие компетенций саморазвития, а также методологические возможности компетентностного подхода. В статье научно обосновано, что образовательный процесс, организованный на основе рефлексии, способствует развитию профессиональной деятельности, самостоятельного мышления и педагогической компетентности будущих учителей начальной школы. Результаты исследования служат важным научно-методическим ресурсом для совершенствования методики развития компетенций саморазвития в системе подготовки учителей.

**Ключевые слова:** рефлексивная деятельность, компетенция саморазвития, начальное образование, будущий учитель, компетентностный подход, педагогическая рефлексия, профессиональное развитие, самостоятельное обучение, педагогическая компетентность, методологический подход.

**Abstract.** This article analyses the pedagogical and methodological foundations for developing the competencies for self-development through reflective practice in prospective primary school teachers. The study pays particular attention to developing prospective teachers' conscious approach to professional activity, their independent learning skills, and their competence in analysing and evaluating their own pedagogical practice. Furthermore, the article highlights the role of reflective practice in the pedagogical process, the factors influencing the development of self-development competence, and the methodological possibilities of a competency-based approach. The article scientifically substantiates that an educational process organised on the basis of reflection serves to develop the professional activity, independent thinking and pedagogical competence of prospective primary school teachers. The research findings serve as an important scientific and methodological resource for improving the methodology of developing self-development competencies within the system of teacher training.

**Keywords:** *reflective activity, self-development competence, primary education, prospective teacher, competency-based approach, pedagogical reflection, professional development, independent learning, pedagogical competence, methodological approach.*

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari pedagog kadrlarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalariga, balki ularning o'z ustida mustaqil ishlash, o'z faoliyatini tahlil qilish hamda doimiy rivojlanishga bo'lgan tayyorgarligiga ham alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat olib boradigan pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchi shaxsining dastlabki intellektual, kommunikativ va ijtimoiy rivojlanish bosqichiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish masalasi pedagogika oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagog o'z faoliyatini faqat mavjud bilimlar bilan cheklab qolmasdan, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtira olishi, kasbiy faoliyatini tanqidiy tahlil qilishi hamda pedagogik jarayonga reflektiv yondasha olishi zarur. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv faoliyatni rivojlantirish orqali o'z-o'zini boshqarish, mustaqil o'qib-o'rganish va kasbiy rivojlanishga ehtiyojni shakllantirishni talab qiladi.

Pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, reflektiv faoliyat bo'lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishida muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Refleksiya pedagogga o'z faoliyatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash, faoliyat samaradorligini tahlil qilish hamda kelgusidagi rivojlanish strategiyalarini belgilash imkonini beradi. Shu sababli reflektiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Biroq amaliyotda ayrim hollarda bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil ta'lim olish, o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, kasbiy kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan reflektiv ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi. Natijada pedagogik faoliyatga moslashish jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Mazkur holat reflektiv faoliyat asosida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bu esa muammoning dolzarblik darajasini belgilovchi asosiy omillar tizimlashtirishni taqazo etadi:

	Dolzarblik omillari	Mazmuni	Pedagogik ahamiyati
--	---------------------	---------	---------------------

Ta'lim tizimidagi modernizatsiya jarayonlari	Zamonaviy ta'lim pedagogdan doimiy rivojlanishni talab qiladi	Kasbiy moslashuvchanlik va innovatsion faoliyatni rivojlantiradi
Kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi	Ta'lim natijasi bilim emas, kompetensiya bilan baholanmoqda	O'qituvchining amaliy tayyorgarligini kuchaytiradi
Refleksiv faoliyatning zarurligi	Pedagog o'z faoliyatini tahlil va baholay olishi kerak	Kasbiy o'sish va pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi
Mustaqil ta'limga ehtiyojning ortishi	Bo'lajak o'qituvchi uzluksiz o'rganishga tayyor bo'lishi lozim	O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi shakllanadi
Pedagogik faoliyatdagi amaliy muammolar	Yosh pedagoglarda kasbiy moslashuv qiyinchiliklari uchramoqda	Refleksiv yondashuv orqali muammolarni kamaytirish imkonini beradi
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash talabi	Ta'lim jarayoniga innovatsion metodlar joriy etilmoqda	Pedagogning metodik tayyorgarligini oshiradi
Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish ehtiyoji	Pedagogning shaxsiy va kasbiy rivoji ta'lim sifati bilan bog'liq	Ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi
Pedagogik refleksiyaning metodik imkoniyatlari	Refleksiya orqali o'qituvchi o'z faoliyatini takomillashtiradi	O'zini baholash va rivojlantirish mexanizmini shakllantiradi

Bu jadvalda keltirilgan omillar refleksiv faoliyat asosida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish masalasi bugungi pedagogika fanining muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda refleksiv yondashuvning metodik imkoniyatlarini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Muammo yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, refleksiv faoliyat va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish

masalasi xorijiy pedagogik tadqiqotlarda keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, Donald Schön tomonidan ishlab chiqilgan reflektiv amaliyot nazariyasida pedagogning kasbiy rivojlanishi o'z faoliyatini muntazam tahlil qilish va qayta baholash jarayoni bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. Shuningdek, John Dewey refleksiyaning pedagogik tafakkurning asosiy elementi sifatida talqin qilib, o'qituvchining mustaqil fikrlashi va muammoli vaziyatlarga ongli yondashuvi kasbiy rivojlanishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi. David Kolbning tajribaviy ta'lim nazariyasida esa refleksiya amaliy faoliyat va kasbiy tajribani takomillashtirish mexanizmi sifatida izohlanadi. Mazkur ilmiy qarashlarda reflektiv faoliyat pedagogning o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantiruvchi muhim metodologik asos sifatida baholanadi.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida ham bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuv hamda pedagogik refleksiyaning metodik imkoniyatlari keng yoritilgan. Jumladan, Tolipov O'tkir, Usmonboyeva Muhayyo, Ishmuhamedov Rustamlarning ilmiy ishlarida pedagogik texnologiyalar, mustaqil ta'lim va innovatsion yondashuvlar asosida pedagog shaxsini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, Nishonova Saodat hamda Azizxo'jayeva Nodira tomonidan pedagogik kompetentlik va kasbiy mahoratni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilib, reflektiv faoliyat pedagogning kasbiy o'sishini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholanadi.

MDH davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham reflektiv yondashuvning pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'siri alohida o'rganilgan. Xususan, Viktor Slastyonin, Irina Zimnyaya hamda Andrey Khutorskoylarning ilmiy qarashlarida pedagogning reflektiv kompetentligi kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida izohlanadi. Mazkur tadqiqotlarda pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish, mustaqil rivojlanishga yo'naltirilgan faoliyati va kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlashi zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Biroq mavjud ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida reflektiv faoliyat asosida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishning metodik mexanizmlari va amaliy modeli hali yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

**Tadqiqot yondashuvi.** Va shu asosda aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni reflektiv faoliyat bilan uzviy bog'liq pedagogik hodisa hisoblanadi. Chunki refleksiya pedagogning o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga yo'naltirilgan ichki mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim muhitida pedagogdan faqat bilim beruvchi emas, balki o'z ustida muntazam ishlaydigan,

kasbiy faoliyatini tahlil qila oladigan va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etadigan mutaxassis sifatida faoliyat yuritish talab etilmoqda.

Tadqiqot davomida kuzatilgan jihatlardan biri shuki, ko‘plab bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari nazariy bilimlarni yetarli darajada egallagan bo‘lsalar-da, o‘z pedagogik faoliyatini mustaqil tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularga nisbatan refleksiv yondashish ko‘nikmalarida ayrim qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa ularning kasbiy moslashuvi va metodik faoliyat samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Mazkur holat pedagogik oliy ta‘lim jarayonida refleksiv faoliyatni maqsadli tashkil etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, refleksiv faoliyat bo‘lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishida faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliy faoliyatni boshqaruvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Refleksiya orqali talaba o‘zining pedagogik imkoniyatlarini anglaydi, kuchli va zaif tomonlarini tahlil qiladi hamda kelgusidagi kasbiy rivojlanish strategiyasini shakllantiradi. Ayniqsa, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, dars jarayoniga mustaqil baho berish, o‘z faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash kabi jarayonlar refleksiv fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Muhokama.** Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, refleksiv faoliyatni rivojlantirishda interaktiv va amaliy metodlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi. Xususan, muammoli vaziyatlar asosida ishlash, pedagogik ke‘nlarni tahlil qilish, o‘zaro fikr almashish, portfoliolar yuritish hamda refleksiv kundaliklardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z faoliyatiga tanqidiy va tahliliy yondashuvini shakllantiradi. Bunday metodlar talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish bilan birga, ularning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan ehtiyojini ham kuchaytiradi.

Shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasining shakllanishida mustaqil ta‘lim faoliyati ham muhim o‘rin egallaydi. Chunki zamonaviy pedagog doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirib borishi, metodik yangiliklarni kuzatishi va pedagogik faoliyatiga moslashtira olishi zarur. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, refleksiv yondashuv asosida tashkil etilgan mustaqil ta‘lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini oshirishga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada talabalarda o‘zini rivojlantirishga nisbatan mas‘uliyat hissi va kasbiy faollik shakllanadi.

Bundan tashqari, refleksiv faoliyatning samaradorligi pedagogik muhit bilan ham bevosita bog‘liqdir. Qo‘llab-quvvatlovchi, erkin fikr bildirishga imkon beruvchi hamda hamkorlikka asoslangan ta‘lim muhiti refleksiv fikrlashning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Aksincha, faqat reproduktiv faoliyatga asoslangan an‘anaviy yondashuv talabalarning mustaqil tahliliy fikrlashiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli pedagogik oliy ta‘lim muassasalarida refleksiv faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodik tizimni shakllantirish muhim hisoblanadi.

**Natija.** Tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, refleksiv faoliyat bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini

shakllantirishning asosiy pedagogik omillaridan biri hisoblanadi. Refleksiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning kasbiy mustaqilligini oshiradi, o'z faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda pedagogik kompetentligining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan refleksiv faoliyatni pedagogik ta'lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim shartlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, refleksiv faoliyat asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon bo'lajak o'qituvchilarda quyidagi muhim kompetensiyalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- pedagogik faoliyatni mustaqil rejalashtirish;
- o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish va baholash;
- muammoli vaziyatlarga mos pedagogik yechim topish;
- mustaqil ta'lim olish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- kasbiy faoliyatda tanqidiy va tahliliy fikrlashni shakllantirish.

Shuningdek, refleksiv yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshirishi, pedagogik vaziyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishi hamda ularning kasbiy motivatsiyasini kuchaytirishi kuzatildi. Ayniqsa, refleksiv kundaliklar, portfolio, muammoli vaziyatlar tahlili va o'zaro baholash metodlaridan foydalanish talabalarning o'z faoliyatiga nisbatan mas'uliyat hissini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi aniqlandi.

Natijalar tahlili yana shuni ko'rsatdiki, refleksiv faoliyat bilan muntazam shug'ullangan talabalarda:

- pedagogik muloqot madaniyati;
- metodik moslashuvchanlik;
- innovatsion faoliyatga tayyorlik;
- o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoj

nisbatan yuqori shakllanadi. Bu esa ularning kelgusidagi pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalariga tayangan holda, refleksiv faoliyatni pedagogik oliy ta'lim tizimiga izchil integratsiya qilish, amaliy mashg'ulotlarda refleksiv metodlardan foydalanish hamda bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini monitoring qilishga qaratilgan metodik mexanizmlarni takomillashtirish muhim pedagogik vazifa ekanligi asoslandi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida refleksiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy shakllanishiga kompleks ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Xususan, refleksiv faoliyat talabalarning pedagogik vaziyatlarga ongli yondashuvi, mustaqil qaror qabul qilishi, o'z kasbiy faoliyatini baholashi hamda pedagogik muammolarga nisbatan tahliliy munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali metodik vosita sifatida namoyon bo'ldi. Natijada bo'lajak

pedagoglarda kasbiy mas'uliyat, innovatsion faoliyatga tayyorlik va uzluksiz o'z ustida ishlash ehtiyoji shakllanishi kuzatildi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar reflektiv faoliyatning o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishdagi integrativ xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Ya'ni refleksiya faqat o'z faoliyatini tahlil qilish vositasi bo'lib qolmay, balki shaxsiy rivojlanish, kasbiy moslashuv, kommunikativ faollik va pedagogik kompetentlikni rivojlantiruvchi muhim mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim muassasalarida reflektiv faoliyatga asoslangan metodik tizimni takomillashtirish, reflektiv topshiriqlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Mazkur fikrlarni yanada aniqroq yoritish hamda reflektiv faoliyat asosida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining



shakllanish bosqichlarini tizimli ko'rsatish maqsadida muvofiq:

Mazkur tizim reflektiv faoliyatning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy jihatdan rivojlantirishdagi uzviy va bosqichma-bosqich pedagogik mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva Nodira. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 192 b.
2. Ishmuhamedov Rustam. *Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Iste'dod, 2020. – 318 b.
3. Musurmonova Oysara. *Pedagogik kompetentlik va innovatsion ta'lim texnologiyalari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 256 b.
4. Nishonova Saodat. *Komil inson tarbiyasi va pedagogik kompetensiya*. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 220 b.
5. Qizi, Jalilova Dilshoda Ural, Poyonova Q., Abdimurodova M., and Nahalboyeva I. "UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA PEDAGOGIK TA'LIM SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR." *Science and innovation* 3, no. Special Issue 18 (2024): 637-640. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10805927>

6. Qizi, J. D. U., & Sevinch, X. M. (2024). PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA HAMKORLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 3(Special Issue 16), 570-572. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10680753>
7. Qizi, J. D. U., & Sevinch, T. L. (2024). TA‘LIM-TARBIYADA KREATIV MUHITNI YARATISHDA FANLARARO ALOQADORLIK. *Science and innovation*, 3(Special Issue 28), 1039-1042. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11099054>
8. Tolipov O‘tkir, Usmonboyeva Muhayyo. *Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari*. – Toshkent: Fan, 2019. – 240 b.
9. Xoliqov Abdug‘ani. *Pedagogik mahorat*. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2021. – 304 b.
10. Yo‘ldoshev Jo‘ra. *Ta‘lim yangilanishi va o‘qituvchi kompetensiyasi*. – Toshkent: Sharq, 2019. – 214 b.

